

## QALQONSIMON BEZ FAOLYATINING BUZILISHI TUFAYLI KELIB CHIQAIDIGAN KASALLIKLAR

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7369391>



ELSEVIER



Received: 27-11-2022

Accepted: 28-11-2022

Published: 22-12-2022

**Rajapova Xayitxon Qodirjon qizi**

*Fardu biologiya magistranti 2-bosqich talabasi*



**Abstract:**

**Keywords:**

**About:** FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.

### Tabiiy fanlar fakulteti

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti bergan ma‘lumotlarga ko‘ra, Yer yuzi bo‘yicha 665 milliondan ortiq odam endemik bo‘qoq va qalqonsimon bezning boshqa kasalliklaridan aziyat chekmoqda. 1,5 milliard inson esa yod tanqisligi xastalıkları rivojlanish xavfiga ega. Ushbu kasalliklar orasida buqoq keyingi yillarda dunyoning aksariyat mamlakatlari, shu qatorda O‘zbekiston uchun ham dolzarb masalaga aylanib bormoqda.

Qalqonsimon bez o‘zidan 3 xil gormon ajratib, ular tananing normal o‘shishi, yetilishi, rivojlanishini ta‘minlaydi, oshqozon-ichak kabi organlarning bir me‘yorda ishlashiga ko‘mak beradi. Agar ularning qaysi birini sintez qilish jarayonida muammolar kuzatilsa, bu o‘z-o‘zidan inson tanasida jiddiy kasalliklarga yo‘l ochadi.

Buqoq ushbu bezning kattalashishi hisoblanib, (normal holatda qalqonsimon bezning vazni 20-30 gramm) kasallik asosan yod yetishmasligi sababli yuzaga keladi. Yod tanqisligiga esa insonning turmush-tarzi, ovqatlanishi, stress, ekologik vaziyat va yana bir qancha omillar sabab bo‘lishi mumkin.

Inson tanasida yod tanqisligi kuzatilganda, qalqonsimon bez hujayralarga kam miqdorda yod yuboradi. Buning oqibatida esa gormonlar sintezi kamayadi va organizm bu jarayonni bir maromga keltirish uchun bosh miya gipofizi orqali ta‘sir o‘tkazadi. Natijada qalqonsimon bez kattalashib, buqoq kasalligi rivojlanadi.

Surunkali yod yetishmasligi va qalqonsimon bez faoliyatining buzilishi zehning susayishi, depressiya, teri qurishi, soch to‘kilishi, qabziyat, ich ketishlar, bepustlik, jinsiy faoliyatning susayishi, suyak rivojlanishining o‘zgarishi, past bo‘ylik va osteoporoz, gipertoniya va ateroskleroz kabi xastaliklarga sabab bo‘ladi.

– Buqoq kasalligining turlari haqida aytib o‘tsangiz.

– Tibbiyotda buqoqning asosan, endemik va sporadik turlari mavjud. Jumladan, endemik buqoq qalqonsimon bezning jadal kattalashishi bilan xarakterlanib, ushbu xastalik ko‘pincha atrof-muhitda yod yetishmasligi, okean va dengizlardan uzoqda joylashgan (O‘zbekiston shular jumlasidan) hududlarda ko‘p uchraydi. Endemik buqoqning diffuz, tugunli va aralash turlari mavjud.

– Kasallikning asosiy belgilari qanday?

– Buqoqning ilk bosqichlarida uning eng kichik belgilari ham sezilmaydi. Biroq keyinchalik bo‘yinning oldi qismi bo‘rtib chiqadi. Natijada kattalashgan qalqonsimon bez asab va qon tomirlarini ezib qo‘yadi. Bu orqali bemorda nafas qisilishi, ovozning birdaniga o‘zgarib qolishi va xirillashi, bo‘g‘ilishlar, ko‘p terlash, yutinishdagi qiyinchiliklar, bosh aylanishi kabi salbiy holatlar kuzatiladi.

Shu bilan birga, asab tizimida buzilishlar sodir bo‘ladi, kayfiyat tez-tez o‘zgaradi, tanadagi barcha jarayonlar sekinlashadi, ayniqsa, oshqozon-ichak faoliyati buziladi.

Afsuski, ko‘pchilik insonlar o‘zlarida bu kasallik rivojlanayotganiga jiddiy e‘tibor bermaydi. Biroq mutaxassis sifatida shuni ayta olamanki, bu xastalikka beparvo bo‘lish yaxshi oqibatlariga olib kelmaydi.

Siz ahamiyatingizni qaratmaydigan belgilar aslida hayot uchun xavflidir.

Qalqonsimon bez bo‘yinning oldingi qismida joylashgan va shaklan kapalakni yodga soluvchi organ. U asab tizimi, ovqat hazm qilish, suyak to‘qimalari va reproduktiv salomatlikka o‘z ta‘sirini [o‘tkazadi](#). Gormon o‘zgarishlari bir necha sabablar tufayli kelib chiqishi mumkin: dori vositalari qabul qilinishi, virusli infeksiyalar, immun tizimi zaiflashishi, yod tanqisligi, homiladorlik va tug‘ruqdan keyingi davr. Odam bolasi kuchsiz qalqonsimon bez bilan tug‘ilishi ham mumkin.

Kasallik deb gormonlarning yetarli ishlab chiqarilmasligi va ortiqcha ishlab chiqarilishiga aytiladi. Muammo bartaraf etilmasa, u yurak xastaliklariga, homiladorlik va tug‘ruq og‘ir asoratlar bilan kechishiga, homila tushishiga, ba‘zi holatlarda komaga olib kelishi mumkin. Gohida zaif alomatlar ham jiddiy kasalliklardan belgi bera oladi. Lekin doimo ularni vaqtida payqab, o‘z hayotini saqlab qolishning imkoniyatlari yetarli.

### **1. Vazn o‘zgarishlari**

Shifokorlar birinchi navbatni diqqatni vazn o‘zgarishlariga qaratishadi. Agar tanada gormonlar me‘yordan ortib ketsa, odam birdaniga ozib ketadi. Odatdagidan ko‘p ovqat iste‘mol qilinganda ham, vazn tashlash davom etadi – bu holatda ovqatlanish rejimi o‘zgarishi hech qanday ta‘sirga ega emas.

Gormon darajasining tushishi esa, aksincha, vazn yig‘ilishiga olib keladi. Metabolizm sekinlashadi va natijada organizm ortiqcha kaloriyani yog‘ shaklida yig‘a boshlaydi. Shu sababli parhez va fitneslarga qatnash ham qomatni ushlashga

yordam bera olmaydi. Natijaga faqatgina gormonal fondagi o'zgarishlarni me'yorga keltiruvchi davolash kursidan keyin erishish mumkin.

## **2. Kayfiyat buzilishlari**

Gormonlar bizning asab tizimimizga o'z ta'sirini to'g'ridan-to'g'ri o'tkazgani uchun ham, kayfiyatimiz ularning darajasiga bog'liq. Nosozliklar alomatlariga hamma narsaga loqaydlik, hissiy qo'zg'aluvchanlik, vahima, xavotir, yig'loqilik yoki o'zini tajovuzkorona tutish kiradi.

Inson o'zidagi o'zgarishlarni payqashi oson emas. Ko'pincha ularni ishdan keyingi charchoq, har kungi stress va hayot qiyinchiliklariga bog'lash mumkin. O'z kayfiyatingizga e'tiborli bo'ling: agar u arzirli sabab bo'lmaganda ham yomonlashsa va bir necha kun davomida o'zingizga kela olmay yursangiz, sizda psixoterapevt qabuliga borish uchun arzirli sabab mavjud.

## **3. Bo'yin sohasida noqulaylik**

Agar bo'yinda shish va uning hajmi ortishi, nafas olishda qiyinlashishi, yutinishda og'riq, ovoz xirillashi kuzatilsa, katta ehtimol bilan, qalqonsimon bez kattalashgan yoki unda tugunchalar paydo bo'lgan.

Qalqonsimon bezning kattalashishi buqoq kasalligi deb ham ataladi. U davolanish va gormon darajasi o'z me'yoriga qaytishi bilan o'tib ketadi. Biroq bo'yindagi noqulaylik qalqonsimon bez saratonidan ham belgi bildirayotgan bo'lishi mumkin. Shuning uchun, agar noxush holat sezsangiz, zudlik bilan shifokor qabuliga boring.

## **4. Sochlar va tirnoq mo'rtligi**

Soch va tirnoqlar gormonal o'zgarishlarga juda sezuvchandir. Shuning uchun kasallik paydo bo'lganda ular yupqalashadi va kuchsizlanadi, oson sinishi va to'kilishi kuzatiladi. Bu nafaqat sochlarga, balki qosh va kipriklarga ham aloqador.

Kuchli soch to'kilishi kallikka ham olib kelishi mumkin. Agar vaqtida davolanib, gormonlar darajasi o'z o'rniga qaytsa, soch qatlami yana avvalgi holatini tiklaydi.

## **5. Menstrual siklda buzilishlar**

Bu buzilishlar ayollarda eng ko'p tarqalgan gormonal uzilishlar alomatidir.

Oy ko'rishdagi muammolar, oz va kam ajralmalar, sikl cho'zilishi yoki juda ko'p qon ketishi yetarli belgi bo'la oladi. Og'riqli menstruatsiya qalqonsimon bezdagi muammolardan ham darak beradi, ayniqsa avval bunday og'riq kuzatilmagan bo'lsa.

Hech qanday gormonal o'zgarishlarga aloqador bo'lmagan yagona holat bu stress va qattiq charchoq bilan bog'liq bo'lishi mumkin, biroq shunda ham ayollar shifokor qabuliga uchrashlari kerak. Buni ortga surish yaramaydi, chunki endokrin kasalliklari bepustlik va homiladorlikda kelib chiquvchi yomon asoratlar xavfini kuchaytiradi.

## **6. Tana haroratidagi o'zgarishlar**

Gormonal kamchiliklar tananing o'z haroratini me'yorda ushlab imkoniyatiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bemorlarning ta'kidlashicha, ko'pchilik bir xonada bo'lib turganda va boshqalar issiqlikni his qilishganda, ular sovqotishadi. Ba'zilar aksincha. Qattiq jazirama hissidan aziyat chekishadi. Qalqonsimon bez qancha ko'p gormon ishlab chiqarsa, tana harorati ham shuncha oshib boraveradi.

Odamlarda odatiy harorat doimiy ravishda balandroq yoki pastroq bo'lishi ham uchraydi. Bunda hech qanday xavotirga hojat yo'q. Biroq u birdaniga o'zgarsa va ma'lum muddat odatiy darajaga qaytmasa, gormonal o'zgarishlar ehtimoli yuqori.

## **7. Teri quruqlashishi**

Quruqlashish va ta'sirchanlik turli xil kasalliklardan dalolat berishi mumkin – psoriaz, ixtioz, zamburug'lar, allergiya, jigar yetishmovchiligi va ruhiy uzilishlar.

Lekin agar qalqonsimon bez kasalliklarining boshqa alomatlari ham mavjud bo'lsa, teri quruqlashishi arziqli belgi bo'la oladi. Ayniqsa, tirsak va tizza sohasida po'st tashlash kuzatiladi va teri tashqi harakatga ta'sirchan bo'lib qoladi. Toshmalar, qichishish va yallig'lanish kuzatiladi.

## **8. Hazm tizimida muammolar**

Qalqonsimon bez gormonlari ovqat hazm qilish tizimini ham me'yorlashtiradi, moddalar almashinuvi va oshqozon-ichak faoliyatini nazorat qiladi. Nosozliklar mushaklar zaiflashishi, yo'g'on ichak tortilishiga olib kelishi mumkin. Buning ortidan qabziyat, diareya va og'riq yuzaga keladi. Diareya o'z navbatida vazn tashlashga olib keladi va ko'pincha bu ikki simptom bir vaqtda kuzatiladi.

## **9. Yurak ritmida o'zgarishlar**

Yurak urishida tezlik yoki sekinlashuv endokrin tizimidagi kasalliklar alomati bo'lishi ham mumkin. Qon bosimi o'zgaradi – birdaniga ko'tariladi yoki tushadi. Hatto oddiy jismoniy zo'riqish nafas qisilishi va puls tezlashuviga olib kelishi mumkin.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. A.G'. Axmedov, G.X. Ziyamutdinnov "Anatomiya, Fiziologiya va Patalogiya" 2016
2. Koshxabatiyev I.A Kerimov, F.A. Ax,atov "vareologiya asoslari"
3. E. Maxmudov "Osmirlar fiziologiyasi va gigeenasi" T. O'qituvchi 1994y